SURXONDARYO VILOYATI OLTINSOY TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 24-dekabr | 374-8-108-Q/25 | Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Oltinsoy tumani hokimi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Oltinsoy tumani hokimligiga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy

zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oltinsoy tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Oltinsoy tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Oltinsoy tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 61 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 21.3 foiz (13 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 11.5 foiz (7 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 55.7 foiz (34 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 4.7 foiz (3 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 6.6 foiz (4 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0 foiz (0 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Oltinsoy tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Oltinsoy tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Oltinsoy tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Oltinsoy

tumani hokimligining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Oltinsoy tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (A.Norboyev):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1- va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha Oltinsoy tumani hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.M.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Oltinsoy tumani hokimi **B.O.Maxmatrayemov**

Oltinsoy tumani hokimining
2025-yil 24-dekabrdagi
374-8-108-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Oltinsoy tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (*byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar*) tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli

RO'YXATI

Tashkilotlar nomi	Tashkilot-ning STIRI	Shtatlar jadvali bo'yicha xodimlar-ning umumiy soni	Shundan:	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo'yladi-gan ish o'rinlari soni	Shu jumladan:					
			nogiron-ligi bo'lgan shaxslar soni		nogiron-ligi bo'lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kam-bag'al oilalar reyestri - dagi oilalarning a'zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan etim, ota-ona qaramog'i-dan mahrum bo'lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxs-lar	odam savdosi-dan jabrlan-gan shaxslar
ЖАМИ:		**6580**	**179**	**61**	**13**	**7**	**34**	**3**	**4**	**0**
"2-SON POLITEXNIKUMI"DM	200483462	90	3	1	1					
"43-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	203237789	94	0	1			1			
"13-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	203237796	108	4	1			1			
"22-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	203242103	109	0	1			1			
"15-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	203242110	117	3	1		1				

"13-SONLI MATEMATIKA FANI CHUQURLASHTIRIB O`QITISHGA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABI "DM	203242134	92	1	1	1					
"5-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	203242159	53	0	1			1			
"9-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI"DM	203244306	102	3	1				1		
"19-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	203283076	109	6	1			1			
"6-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	203370428	86	0	1	1					
"1-SON POLITEXNIKUMI"DM	203669741	93	1	1			1			
"47-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	205045884	115	2	1			1			
"7-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860187	74	1	1			1			
"42-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860203	65	2	1		1				
"10-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860471	97	1	1	1					
"11-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860488	96	4	1			1			
"24-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860535	89	5	1		1				
"26-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860550	65	1	1			1			
"29-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860574	81	1	1			1			
"32-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860599	50	0	1	1					
"40-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860646	62	1	1			1			

"44-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860661	97	1	1			1			
"46-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860685	51	0	1		1				
"49-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860701	59	2	1			1			
"50-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860718	41	1	1			1			
"52-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860733	59	1	1	1					
"53-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI"DM	206860740	76	2	1			1			
"57-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860764	57	1	1			1			
"60-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI"DM	206860796	72	1	1	1					
"61-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860804	66	0	1	1					
"62-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI"DM	206860812	59	1	1			1			
"18-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI"DM	304313517	43	0	1	1					
"70-SONLI MAKTABI" DM	311553492	34	1	1			1			
14-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203237772	138	3	1			1			
54-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203246549	113	3	1				1		
OLTINSOY TUMANIDAGI 8-SONLI INGLIZ TILIGA IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA`LIM	206860464	93	2	1			1			

MAKTABI										
21-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206860528	60	3	1		1				
28-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	206860567	57	1	1			1			
31-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206860582	57	0	1			1			
41-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206860654	84	1	1	1					
48-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206860693	55	2	1			1			
63-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206860829	37	1	1	1					
64-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	207286876	83	0	1	1					
65-SONLI UMUMIY TA'LIM MAKTABI	207301019	103	3	1	1					
66-SONLI UMUMIY TA'LIM MAKTABI	207301026	42	0	1			1			
67-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI	207321144	53	2	1		1				
"OBODONLASHTIRISH" BO'LIMI	205959015	197	9	4			2		2	
OLTINSOY TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	201951489	2682	94	8		1	4	1	2	
"SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO'MITASI SURXONDARYO VILOYAT	200483684	59	2	1			1			

BOSHQARMASI OLTINSOY TUMANI BO’LIMI" DAVLAT MUASSASASI										
"OLTINSOY TUMAN SUV YETKAZIB BERISH XIZMATI" DAVLAT MUASSASASI	311118519	43	0	1			1			
"XO'JAIPOK SANATORIYSI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	307360386	63	3	1			1			

Oltinsoy tumani hokimining
2025-yil 24-dekabrdagi
374-8-108-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Олтинсой туманида 2026 йилда аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифаларини ишга жойлаштириш учун ходимларининг рўйхатдаги ўртача йиллик сони юз нафардан ортиқни ташкил этадиган хўжалик юритувчи субъектлар *(давлат улуши 50 фоиздан юқори бўлган корхоналар бундан мустасно)* **томонидан мажбурий захира қўйиладиган иш ўринларининг манзилли**
РЎЙХАТИ

Т/р	Ташкилот номи	Ташкилотнинг СТИРи	Штат жадвали бўйича ходимларнинг умумий сони	шундан,	Келгуси йил учун захирага қўйладиган иш ўринлари сони	шу жумладан:			
				ногиронлиги бўлган шахслар сони		ногиронлиги бўлган шахслар	оилавий (маиший) зўравонликдан жабрланган шахслар	Камбағал оилалар реестридаги оилаларнинг аъзолари	муқобил жойлаштириш шаклларида тарбияланган етим, ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган шахслар
1									